



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

2023 - yil « 7 » avgust 341 -son

Toshkent shahri

**Talaba-yoshlar o‘rtasida**  
**“Kitobxon yoshlar ligasi”**  
**onlayn tanlovini o‘tkazish**  
**to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 muhim tashabbusining to‘rtinchi tashabbusi “Yoshlar ma’naviyati yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish” va 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi V bob, 72-maqsadi: “Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish, “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish” hamda talaba-yoshlarning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Talaba-yoshlar orasida kitobxonlikni keng ommalashtirish, “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish” hamda talaba-yoshlarning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida 2023/2024-o‘quv yilida har chorakda bir marotaba **“Kitobxon yoshlar ligasi”** respublika onlayn kitobxonlik tanlovi (keyingi o‘rinlarda – tanlov) o‘tkazilsin.

2. Tanlovni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga, Respublika tashkiliy ishchi guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N.Kasimov), Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (R.Xudayberganov):

har chorakda mazkur tanlovni o‘tkazish muddatlarini belgilash va onlayn tanlovni belgilangan muddatlarda o‘tkazish, tanlov g‘oliblarini tantanali taqdirlash va u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirsin;

tanlov g‘olibi bo‘lgan talaba-yoshlar uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maxsus diplom va sertifikatlarini tayyorlasin;

4. Tanlovni o'tkazish hamda g'oliblarni taqdirlash bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy harajatlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 7-iyul sanasidagi 295-sonli buyrug'i ilovasi 10-bandiga muvofiq Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markaziga o'tkazilgan mablag' hisobidan qoplansin.

5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot xizmati rahbari (N.Abduqunduzova):

tanlov e'loni targ'iboti hamda tanlov g'oliblari haqidagi ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarda, jumladan, vazirlik va ta'lim muassasalarining rasmiy sahifalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazir o'rinbosari S.Buzrukxonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



I. Abduraxmonov

**NUSXA  
ASLIGA TO'G'RI**

**“Kitobxon yoshlar ligasi” onlayn respublika tanlovini  
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur nizom talaba-yoshlar orasida kitobxonlikni keng ommalashtirish, “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish”, shuningdek, talaba-yoshlarning darsdan bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan **“Kitobxon yoshlar ligasi”** onlayn respublika tanlovi (keyingi o‘rinlarda – tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 muhim tashabbusining to‘rtinchi tashabbusi “Yoshlar ma‘naviyati yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish” hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi V bob, 72-maqsadi: “Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish, “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish” maqsadida tashkil etiladi.

**II. Tanlovning maqsad va vazifalari**

2.1. Tanlovni o‘tkazishdan maqsad talabalar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va kitob mutolaasini keng targ‘ib qilishdan iborat.

2.2. Tanlovning asosiy vazifasi talaba-yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, aholi hamda yoshlarning dunyoqarashi, so‘z boyligini kengaytirish, ijtimoiy faolligi va millat taqdiriga daxldorligini oshirish, kitobxonlik madaniyati, savodxonligini rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

**III. Tanlovni o‘tkazish tartibi**

3.1. Tanlov (*tashkilotchi*) vazirlik huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan har chorakda (*iyun-avgust, sentabr-noyabr, dekabr-fevral, mart-may*) bir marotaba tashkil etiladi.

3.2. Tanlovni har chorakda qaysi muddatlarda tashkil etilishi tashkiliy ishchi guruh tomonidan hal qilinadi hamda tanlov e‘lonida va tanlov bo‘lib o‘tadigan Telegram botda ham ko‘rsatiladi.

3.3. Tanlovda barcha oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar hamda professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar ishtirok etishi mumkin.

3.4. Mazkur tanlov yakka tartibdagi musobaqa bo'lib, unda qatnashish uchun ishtirokchilar telegramdagi maxsus [@kitobtanlovbot](#) orqali belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari va bot taqdim qiladigan maxsus havolani ulashish orqali tanlov targ'ibotida qatnashib, kamida +5 referal ball yig'ishlari kerak bo'ladi.

3.5. Tanlovda ishtirokchilarga, oldindan 2 ta (yoki 3 ta kichikroq hajmdagi) kitoblar o'qish uchun vazifa qilib beriladi. Kitoblarni o'qish uchun tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 15 kun vaqt beriladi. Belgilangan vaqt yakunlangach, 5 kun davomida har kuni 30 tadan (jami 150 ta) vazifa qilib berilgan kitoblar asosida tuzilgan test savollari [@kitobtanlovbot](#) manzilida berib boriladi. 30 ta test savolini ishlash uchun jami 30 daqiqa (har bir test uchun 1 daqiqadan) vaqt beriladi.

3.6. Har bir to'g'ri javob uchun +1 balldan beriladi va yakunda eng ko'p ball to'plagan 50 nafar ishtirokchi tanlovning final bosqichi yo'llanmasiga ega bo'ladi.

3.7. Final yo'llanmasi uchun kurashayotgan ishtirokchilarning 150 ta test bo'yicha ballari teng bo'lib qolgan taqdirda, ishtirokchilarning barchasi final yo'llanmasiga ega deb topiladi.

3.8. Tanlov davomida ishtirokchining 2 yoki undan ko'p profillardan ishtirok etayotganligi aniqlansa, tanlovdan chetlatiladi va natijasi bekor qilinadi.

#### **IV. Tanlovning final bosqichini o'tkazish tartibi**

4.1. Tanlovning final bosqichida I-bosqichdagi to'plangan ballar ahamiyatini yo'qotadi va final bosqichi ishtirokchilarining har biri teng imkoniyatga ega bo'ladi.

4.2. Final bosqichi ishtirokchilariga vazifa qilib berilgan kitoblar bo'yicha jami 50 ta test va har bir testga javob berish uchun 40 soniyadan vaqt beriladi.

4.3. Yakunda tanlov g'oliblari 50 ta test bo'yicha to'plangan ballarga ko'ra aniqlanadi.

4.4. Yuqori o'rindagi ishtirokchilarning ballari teng bo'lib qolgan taqdirda 50 ta testni ishlash uchun sarflangan vaqtga qaraladi. Kim kamroq vaqt sarflagan bo'lsa o'sha ishtirokchi yuqoriroq o'rinda deb topiladi.

#### **V. "Eng faol tanlov targ'ibotchisi" nominatsiyasi g'oliblarini aniqlash tartibi**

5.1. Tanlov e'lon qilingan kundan boshlab, kitoblarni o'qish muddati yakuniga qadar bo'lgan muddatda tanlov targ'ibotida faol ishtirok etib, eng yuqori referal ball to'plagan 10 nafar ishtirokchi "Eng faol tanlov targ'ibotchisi" nominatsiyasi g'olibi deb topiladi.

5.2. Yakunda “Eng faol tanlov targ‘ibotchisi” nominatsiyasi g‘oliblarining referal ballari teng bo‘lib qolgan taqdirda, ularning test bo‘yicha to‘plagan ballari inobatga olinadi hamda kim test savollaridan ko‘proq ball to‘plagan bo‘lsa, yuqori o‘rinda deb hisoblanadi.

## **VI. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

6.1. Tanlov g‘olib va sovrindorlari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

1-o‘rin 1 nafar – **Noutbuk (core i5) va I darajali diplom;**

2-o‘rin 2 nafar – **Smart televizor (43 dyumm) va II darajali diplom;**

3-o‘rin 3 nafar – **Planshet (4/64) va III darajali diplom;**

4-o‘rin 4 nafar – **Smartfon (6/128) va sertifikat;**

5-o‘rin 10 nafar – **Smartfon (4/64) va sertifikat.**

6.2. “Eng faol tanlov targ‘ibotchisi” nominatsiyasi g‘oliblari 10 nafar – **Smartfon (4/64) va sertifikat** bilan taqdirlanadi.

## **V. Yakuniy qoidalar**

7.1. Tanlov davomida tashkilotchilar ishtirokchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatini ko‘rsatishini (onlayn yuborishini) talab qilish hamda yuqori o‘rindagi ishtirokchilarning natijalariga shubha paydo bo‘lganida ular bilan videochat orqali qo‘shimcha savol-javob o‘tkazish vakolatiga egadirlar.

7.2. Tanlov ishtirokchilari (boshqa shaxslar) tomonidan tanlovni tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog‘liq e‘tirozlar qabul qilinmaydi.

7.3. Tanlov tashkiliy ishchi guruhi ishtirokchilarning talab va takliflarini inobatga olgan holda “Kitobxon yoshlar ligasi” onlayn tanlovi 2-mavsumidan boshlab tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi mumkin.

7.4. Tanlov davomida nizomda ko‘rsatilmagan fors-major holatlar yuzaga kelsa, Tashkiliy ishchi guruh tomonidan qaror qabul qilinadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining  
2023-yil "4 - 08" dagi  
341 -son buyrug'iga 2-il'eva

**Talaba-yoshlari o'rtasida "Kitobxon yoshlar ligasi" onlayn respublika  
tanlovini o'tkazish yuzasidan  
Respublika tashkiliy ishchi guruhi  
TARKIBI**

<b>T/r</b>	<b>Familyasi va ismi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1.	S.Buzrukxonov	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosari, <i>Respublika tashkiliy ishchi guruh raisi</i>
2.	R.Xudayberganov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi direktori, <i>Tashkiliy ishchi guruh raisi o'rinbosari</i>
3.	N. Xolbo'tayev	O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari, <i>a'zo</i>
4.	Y.Abduqaxxorov	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi xodimi, <i>a'zo</i>
5.	M.Ozodov	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi xodimi, <i>a'zo</i>
6.	O.Olimjanov	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi, <i>a'zo</i>
7.	I.Asomiddinov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i, <i>Respublika tashkiliy ishchi guruh kotibi</i>